

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

O'ZBEK O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILI RAVISH SO'Z TURKUMI GRAMMATIK XUSUSIYATLARINI O'RGATISHDA KOMMUNIKATIV MASHQLARDAN FOYDALANISH

Tolibova Durdona Mamajonovna

Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti

tolibovadurdona2004@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz tili va o'zbek tili ravish so'z turkumi taqqoslab, tahlil qilingan hamda uning grammmatik xususiyatlarini o'rgatish uchun kommunikativ mashqlar to'plamidan foydalanish yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ravish so'z turkumi, metodika, kommunikativ kompetensiya, mashqlar.

USING COMMUNICATIVE EXERCISES FOR TEACHING GRAMMATICAL FEATURES OF ENGLISH ADVERB TO UZBEK STUDENTS

Tolibova Durdona Mamajonovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages

tolibovadurdona2004@gmail.com

ABSTRACT

In this article, English and Uzbek adverbs are compared and analyzed and the use of a set of communicative exercises to teach the grammatical features of adverb is explained.

Key words: Adverb, methodology, communicative competence, exercises.

KIRISH

Bugungi kun metodikasining asosiy maqsadlaridan biri bu chet tillarini o'qitish jarayonida o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyanı shakllantirishdir. Kommunikativ kompetensiya esa o'z ichiga turli kichik kompetensiyalarini qamrab oladi.Bularning birinchisi lingvistik kompetensiya hisoblanad..Unga ega bo'lish esa o'quvchining ingliz tili grammatikasi va leksikasi bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lish bilan ifodalanadi.Buning uchun ona tili va o'rganilayotgan til birliklari solishtirilib,tahlil qilinishii va interferensiya holatlari ko'rib chiqilishi zarurdir.Lingvistik interferensiyada so'zlovchi tomonidan bir til natijasida ikkinchi bir tilde sodir bo'layotgan xatolarni tushunamiz.Buning oldini olish uchun o'qituvchidan

o'quvchilarga yordam beruvchi mashqlar to'plamidan foydalanish ancha samaraliroqdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Xorijiy tilni samarali o'qitish uchun, eng avvalo, o'quvchilarning ona tili va o'rghanayotgan tilni solishtirib o'rghanish va tahlil qilish asosiy o'rinni egallaydi. Bunda ikkita til o'rtasidagi o'xhash shakllar o'rghanuvchiga bir qancha qulayliklar yaratса, farqli taraflari ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham chet tilini o'qitishda taqqoslash orqali o'xhash yoki farqli tomonlarini o'rghanish bilan shug'ullanadigan tilshunoslik bo'limi Kontrastiv lingvistika deyiladi. Rus olimi V.B.Kashkinga ko'ra, tillarni qiyoslash bilan tilshunoslikning ikki bo'limi: qiyosiy (komparativ) va chog'ishtirma (kontrastiv) lingvistika shug'ullanadi [2].

Birinchi bo'lim bir-biriga qardosh tillarni qiyoslab o'rgansa, ikkinchi bo'lim bir-biriga aloqasi bo'lmanan tillarni taqqoslab o'rghanadi (masalan, o'zbek va ingliz tili). Bu holatda biz Xomskiy tomonidan fanga kiritilgan. "Kompetensiya" ("ma -horat", "qobiliyat") – u yki bu o'quv predmetni o'qitish davomidashakllanadigan bilim, ko'nikmalar yig'indisi-so'ziga to'xtalib o'tamiz. Keyinchalik bu atama takomillashib "kommunikativ kompetensiya" nomini oldi va buni fanga amerikalik olim D.Hayms (1972) kiritgan va fanda keng qollanila boshlangan. Kommunikativ kompetensiyada :

- ta'lim jarayonining nutqiy faoliyatga qaratilganligi;
- o'quv materiallarni tanlash va mashqlarni hayotiylikka bog'lash;
- darslarda hayotiy manbalar (news, qo'shiqlar matni) dan foydalanish;
- kommunikativ mashqlar ishlatish asosiy o'rinni egallaydi.

Natijalar

Yuqoridaq ko'nikmalardan foydalanib, ingliz tili ravish so'z turkumi xususiyatlarini o'zbek tili ravish so'z turkumi bilan solishtiramiz. Bunda, eng avvalo, ravish so'ziga izoh berilsa, RAVISH-mustaqlil so'z turkumlarida biri, harakat va holatning belgisini, shuningdek, belgining belgisini bildiradi. O'zbek tilde ravish asosan, gapda fe'ldan oldin keladi, ingliz tilida esa u asosan fe'ldan keyin qo'llaniladi (He works **hard**. - U **qattiq** ishladi). Lekin ingliz tilida ravish gapda sifatdan va boshqa bir ravishdan oldin kelishi mumkin (He is **very good** student).

She speaks **quite well**). Ravish ma'no turlariga ko'ra bir nechta turlarga bo'linadi. Farqli ravishda bu ingliz tilida 4 turga, o'zbek tilida esa 6 turga bo'linadi.

Ingliz tilidagi ravish turlari:

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

- 1.O'rin-joy ravishlari (adverbs of place);
- 2.payt ravishlari (adverbs of time);
- 3.daraja-miqdor ravishlari (adverbs of quantity)
- 4.holat ravishlari (adverbs of manner)

O'zbek tilidagi ravish turlari:

- 1.Holat ravishlari (tez,sekin)
- 2.O'rin-joy ravishlari (uzoqda)
- 3.Daraja-miqdor ravishlari (ancha,sal)
- 4.Maqsad ravishlari (ataylab)
- 5.Sabab va oqibat ravishlari (noiloj)
- 6.Payt ravishlari (hozir,kecha)

Inglz tilida agar bitta gapda ikki yoki undan ortiq ravish turi qatnashsa,ularning tartibi quyidagicha bo'ladi: holat ravishlari (manner)+o'rin-joy ravishlari (place)+payt ravishlari (time).Masalan, the baby slept **quietly in his cot all night long.** Chaqaloq tinch uxladi uning karavotida tuni bilan.Agar gapda "go,come,leave" kabi harakat fe'llari kelsa tartib quyidagicha bo'ladi: o'rin-joy ravishlari+holat ravishlari+payt ravishlari.Masalan,He **came to work by bus this morning.** O'zbek tilida esa bunday qat'iy qoidalar keltirilmaydi.

Ravishlarning yasalishi. Ravishlarning yasalishi o'zbek tilida ikki xil usulda amalga oshiriladi: morfologik(qahramon+larcha=qahramonlarcha) va sintaktik (har +zamon= har zamon). Ingliz tilida ko'pgina ravishlar sifatlarga -ly qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi (quick+ly=quickly).Lekin -ic qo'shimchasi bilan tugagan sifatlarga -ally qo'shimchasi ravish yasash uchun xizmat qiladi (dramatic+ally=dramatically,lekin public +ly=publicly).Bundan tashqari good sifatining ravish shakli well shaklida ifodalanadi.Ingliz tilidagi ba'zi so'zlar esa gapning mazmuniga ko'ra ham sifat ham ravish bo'lib kela oladi.Masalan, Iron **is hard**-sifat, I work **hard**-ravish. Agar bunday so'zlarga -ly qo'shimchasi qo'shilsa, boshqa ma'no kelib chiqadi (hard-qattiq,hardly-zo'rg'a).

Muhokama

O'quvchilar o'rtasida ravishning nutqga olib kirilishi bo'yicha bir necha muammolarni oldini olish uchun dars davomida yuqorida aytib o'tilgan kommunikativ mashqlardan foydalanish muhimdir:

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

1. Almashtirishga asoslangan mashqlar (exercises for substitution). Bunday turdag'i topshiriqlarda gapdagi leksik birliklar o'rni o'zgartiriladi va uni o'z o'mniga joylashtirish talab qilinadi. Bu so'zlarni muloqotda to'g'ri qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradi. Masalan: do /I/my/slowly/homework – I do my homework slowly.

2. Gapdagi xatolikni topish: bu mashqda gap birliklaridan biri noto'g'ri qo'llaniladi va o'quvchilarining vazifasi ularni aniqlashdan iborat. Masalan, I read a text **quick** –gapida quick so'zining o'rniga **quickly** ravishi qo'yilishi kerak.

3. Reproductiv topshiriqlar: o'tilgan mavzuga oid dialog, news yoki qo'shiqdagi bo'sh qoldirilgan joylarni to'ldiring. Bunda o'quvchilarning darsga bo'lган qiziqishi ortishi va tinglash ko'nikmasini yaxshilash asosiy maqsad qilib olinadi.

Xulosa

Chet tillarini o'qitishda kommunikativ kompetensiyalar asosiy o'rin egallamoqda.

Buning natijasida o'quvchilarining bilim samaradorligini oshirish yaxshi ko'rsatgichlarda namoyon bo'lmoqda. O'qitish davomida interaktiv mashqlardan foydalanish o'rganuvchiga so'z qo'llash va uni nutqqa olib kirish ko'nikmalariga erishishni osonlashtiradi.

REFERENCES

1. Littlewood,W.T.(1893)."Communicative approach to language teaching methodology (CLCS Occasional Paper No.7)." Dublin University,Trinity College,Centre for Language and Communication Studies.(EDRS No.ED 235 690,23 pages).
2. Jumayeva, M. B. (2022). OLIY TA'LIMDA INNOVATSION USUL VA VOSITALAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 20), 214-226. doi: 10.24412 (Vol. 226). 2181-1784-2022-20-214.
3. Jumayeva, M., & Turdiyeva, U. (2022). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN LEARNING ENGLISH. Science and innovation, 1(B8), 1710-1714.
4. Кашкин В.Б. Сопоставительная лингвистика.-М.: Русский язык,2007.-180 с.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

5. Kamiljanovna, Z. D., O'GLi, A. S. J., & Jumayeva, M. B. (2022). THE ANALYSIS OF HIGHER ORDER THINKING SKILLS. *Science and innovation*, 1(Special Issue 2), 672-676.
6. Abdisheribov, S., Yo'Ldosheva, M., & Jumayeva, M. (2022). IMPLEMENTING CREATIVE WRITING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING CLASSROOMS. *Science and innovation*, 1(B8), 1343-1347.
7. G'aporov M, Qosimova R, "ingliz tili grammatikasi" T.: -2008.
8. Abdulakim o'g'li, A. I. (2022). INGLIZ TILIDA GAP STRUKTURASINING TIZIMLINISHIDA YORDAMCHI SO 'Z TURKUMLARINING ROLI. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(3), 137-140.